



## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
trln. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 2849,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,8 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va o'chiq konlarni ishlash sanoatida – 3,5 martaga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 25,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 4,0 % ga o'sishi kuzatilib, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish esa - 96,6 % ga, kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tafsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

**2019-yil yanvar-aprel**



**2020-yil yanvar-aprel**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,002 % ni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2702,1 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,8 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 44,9 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 24,3 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,1 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 44,9 %**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 24,3 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 17,1 %**




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 128,5 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 125,6 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,3 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,678 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash 62,5 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish 37,0 % ni tashkil etdi.






**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-aprel	2019-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts:</b>	91,8	65,6	26,2
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	59,5	72,1	- 12,6
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>	17561	14209	3352
<b>Maxsus engil avtomobillar – dona:</b>	2119	2665	- 546
<b>Aroq – ming litr:</b>	126	328	- 202
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:</b>	7,4	9,4	- 2
<b>Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:</b>	192	350	- 158
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:</b>	32314,6	26279,5	6035,1
<b>Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:</b>	3726,0	7577,8	- 3851,8
<b>Xo'jalik sovuni – tonna:</b>	1605,5	3219	- 1631,5
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	31210,9	28291,4	2919,5
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	50063,0	44220,4	5842,6

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, issiqlik energiyasi 12,6 ming gkalga, maxsus engil avtomobillari 546 donaga, aroq 202,0 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 158,0 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 3851,8 tonnaga, xo'jalik sovuni 1631,5 tonnaga kamaygan.

Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2019-yil yanvar-aprel oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 46,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-aprel oylarida bu ko'rsatkich 46,8 foizga oshgan bo'lsa, yuqori texnologiyali ishalb chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,0 foizdan 4,8 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,2 mlrd.so'mlik (2019-yil yanvar-aprel oylarida 0,4 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1333,6 mlrd.so'mlik (1124,5 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 137,8 mlrd.so'mlik (122,8 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1230,6 mlrd.so'mlik (1051,7 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




## Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-aprel mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2849,0</b>	<b>104,8</b>
Urganch shahri	481,4	87,2
Xiva shahri	39,9	101,7
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bo'ot tumani	94,0	102,8
Gurlan tumani	132,0	101,4
Qo'shko'pir tumani	82,3	113,3
Urganch tumani	101,1	110,0
Hazorasp tumani	1411,4	116,4
Xonqa tumani	146,9	81,3
Xiva tumani	62,8	115,1
Shovot tumani	153,5	111,7
Yangiariq tumani	122,4	112,3
Yangibozor tumani	21,2	55,7


Yuqorida jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Hazorasp tumani, Urganch shahri, Urganch tumani, Gurlan tumani, Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, Hazorasp tumani 116,4 %, Xiva tumani 115,1 %, Qo'shko'pir tumani 113,3 %, Yangiariq tumani 112,3 %, Shovot tumani 111,7 % va Urganch tumani 110,0 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2019-YIL YANVAR-APREL OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Hazorasp tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmnning 49,5 %), Urganch shahri (16,9 %), Shovot (5,4 %), Xonqa (5,2 %), hamda Gurlan (4,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,2 %), Xiva shahri (1,4 %) hamda Yangibozor tumani (0,7 %) to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-aprel	2019-yil yanvar-aprel
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>2849,0</b>	<b>2434,8</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,05</b>	<b>0,4</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,05	0,4
<b>Qayta ishslash faoliyati</b>	<b>2702,1</b>	<b>2299,4</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	414,4	380,4
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	72,8	57,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	686,2	550,0
Kiyim ishlab chiqarish	7,5	6,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,2	1,4
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,5	2,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	6,0	5,4
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,4	0,6


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020-yil yanvar-aprel</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	8,7	8,5
Asosiy farmasevtika	0,1	0,3
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	11,4	11,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	65,4	56,6
Metallurgiya sanoati	10,8	8,4
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	45,4	40,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	9,9	9,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	36,5	64,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1278,4	1041,4
Mebel ishlab chiqarish	11,8	12,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	27,7	34,5
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	4,7	5,7
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>128,5</b>	<b>119,3</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>18,3</b>	<b>15,7</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 1766,8 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 117,2 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-aprel



2019 yil yanvar-aprel



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 416,7 mlrd.so'mni va 1350,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 98,3 foiz va 124,6 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,0 foizni (2019 yil yanvar-aprel oylarida 61,9 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ihslab chiqarish 76,0 mlrd.so'mni, avtomobil ishalb chiqarish 1128,8 mlrd.so'mni va 145,3 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishalb chiqarilgan.

**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1766,8</b>	<b>100</b>	<b>117,2</b>
Urganch shahri	220,1	12,5	83,6
Xiva shahri	22,4	1,3	100,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo’ot tumani	43,3	2,5	114,8
Gurlan tumani	35,9	2,0	116,7
Qo’shko’pir tumani	18,8	1,1	101,1
Urganch tumani	78,4	4,4	120,6
Hazorasp tumani	1165,0	65,9	129,6
Xonqa tumani	74,1	4,2	114,2
Xiva tumani	22,5	1,3	91,2
Shovot tumani	41,8	2,4	112,5
Yangiariq tumani	23,3	1,3	100,6
Yangibozor tumani	21,0	1,2	100,6

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 65,9 % ni, shuningdek, Urganch shahri 12,5 % ni, Urganch tumani 4,4 % ni, Xonqa tumani 4,2 % ni hamda Bo’got tumani 2,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Hazorasp tumani (129,6 %), Urganch tumani (120,6 %), Gurlan tumani (116,7 %), Bog'ot tumani (114,8 %), Xonqa tumani (114,2 %) hamda Shovot tumanida (112,5 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>416,7</b>	<b>100</b>	<b>99,6</b>
Urganch shahri	138,0	33,1	76,8
Xiva shahri	14,8	3,6	105,8
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo'ot tumani	35,6	8,6	132,9
Gurlan tumani	16,8	4,1	97,1
Qo'shko'pir tumani	11,0	2,7	95,0
Urganch tumani	57,2	13,9	147,6
Hazorasp tumani	20,0	4,8	82,4
Xonqa tumani	52,2	12,7	119,7
Xiva tumani	13,0	3,2	78,6
Shovot tumani	31,8	7,7	126,6
Yangiariq tumani	11,4	2,8	84,8
Yangibozor tumani	14,9	3,6	116,4

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 33,1 %, shuningdek, Urganch tumani 13,9 % ni, Xonqa tumani 12,7 % ni, Bog‘ot tumani 8,6 % ni hamda Shovot tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch tumani (147,6 %), Bog‘ot tumani (132,9 %), Shovot tumani (126,6 %), Xonqa tumani (119,7 %) va Yangibozor tumani (116,4 %) ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1350,1</b>	<b>100</b>	<b>124,6</b>
Urganch shahri	82,1	6,1	98,5
Xiva shahri	7,6	0,6	90,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bo‘ot tumani	7,7	0,6	70,5
Gurlan tumani	19,1	1,4	141,7
Qo’shko’pir tumani	7,7	0,6	111,3
Urganch tumani	21,3	1,6	80,8
Hazorasp tumani	1145,1	84,8	130,9
Xonqa tumani	21,9	1,6	103,0
Xiva tumani	9,5	0,7	116,9
Shovot tumani	10,0	0,7	83,1
Yangiariq tumani	11,9	0,9	122,4
Yangibozor tumani	6,2	0,5	75,7

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 84,8 %, shuningdek, Urganch shahri 6,1 % ni, Xonqa tumani 1,6 % ni, Urganch tumani 1,6 % ni hamda Gurlan tumani 1,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (124,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumani (141,7 %), Hazorasp tumani (130,9 %) ni tashkil qildi.



### Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)

Iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Hazorasp tumani (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 129,6 %), Urganch tumani (120,6 %), Gurlan tumani (116,7 %), Bog’ot tumani (114,8 %), Xonqa tumani (114,2 %), Shovot tumani (112,5 %) ga sezilarli darajada oshdi.

Qolgan Urganch shahri, Xiva tumanida o‘sish sur’ati 100 % dan kamaygani kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1524,1</b>	<b>103,1</b>	<b>945,2</b>	<b>115,3</b>
Urganch shahri	3342,9	85,9	1528,8	82,4
Xiva shahri	432,8	100,2	243,1	98,6
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bo’ot tumani	573,1	101,0	264,0	112,7
Gurlan tumani	892,6	99,9	242,7	114,9
Qo’shko’pir tumani	478,8	111,3	109,2	99,3
Urganch tumani	510,9	108,0	396,4	118,4
Hazorasp tumani	5686,6	114,4	4693,9	127,3
Xonqa tumani	790,8	80,0	399,0	112,5
Xiva tumani	432,6	113,2	155,0	89,7
Shovot tumani	905,9	109,8	246,7	110,6
Yangiariq tumani	1058,0	110,6	201,4	99,0
Yangibozor tumani	243,7	54,8	241,6	99,0

Yuqorida tahlili jadvalga asosan joriy yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1524,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-aprel oylarida Hazorasp tumani 4674,6 ming so'mdan 2020-yil yanvar-aprel oylarida 5686,6 ming so'mga, Yangiariq tumanida 581,5 ming

so'mdan 1058,0 ming so'mga, Shovot tumani 539,3 ming so'mdan 905,9 ming so'mga, Xiva tumanida 198,8 ming so'mdan 432,6 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Hazorasp tumanida (5686,6 ming so'm), Urganch shahrida (3342,9 ming so'm)ga o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1524,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 945,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-aprel oylarida Hazorasp tumani 3686,0 ming so'mdan 2020 yil yanvar-aprel oylarida 4693,9 ming so'mga, Shovot tumani 223,1 ming so'mdan 246,7 ming so'mga, Gurlan tumani 211,2 ming so'mdan 242,7 ming so'mga Xonqa tumani 354,8 ming so'mdan 399,0 ming so'mga o'sgani kuzatildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Bog'ot tumani (68,6 %), Urganch tumani (66,6 %), Gurlan tumani (43,8 %) ni tashkil qildi.

Viloyatda yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 646,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida


sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Hazorasp tumani (3,8 %), Shovot tumani (16,9 %), Yangiariq tumani (17,1 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 283,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.

### Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-may holatiga ko'ra)



Viloyatda 3,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 60,0 %) Urganch shahriga, 685 tasi (21,1 %), Urganch tumaniga 372 tasi (11,5 %), Xiva shahriga, 308 tasi (9,5 %), Xonqa tumaniga 287 tasi (8,9 %), Xiva tumaniga 286 tasi (8,8 %) to'g'ri kelmoqda. 2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 436 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lgan Urganch shahrida 74 ta, Xonqa tumanida 50 ta, Yangibozor tumanida 44 ta, Qo'shko'pir tumanida 49 ta va 39 ta Xiva shahrida tashkil etilgan.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

"Sanoat statistikasi" bo'limi

Aloqa telefoni (62) 224-64-99